# TALABALARNING KASBIY IJTIMOIYLASHUVIDA KORPORATIV MADANIYATNING ROLI

https://doi.org/10.70728/conf.mag.096

***Maxkamova Dilafruz Aliyevna***
*Qo‘qon davlat universiteti*
*Geografiya va iqtisodiyot kafedrasi*
*v.v.b dotsenti*

Hozirgi zamon ta’lim tizimi faqat bilim berishdan iborat emas, balki talabalarni ijtimoiy va professional hayotga moslashtirishga ham e’tibor qaratishi lozim. Respublika miqyosida oliy ta’lim muassasalarida talaba yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning dunyomiz globallashuvi va texnologiyalar rivojlanishiga olib kelgan hozirgi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda, talabalarga faqat akademik bilimlarnigina emas, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham ta’minlash zarur.

Dunyodagi murakkab muammolar, texnologiyalarning tez rivojlanishi va globallashuv oddiy ijtimoiy moslashuvni talab qiladi. Talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvi o‘z navbatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Korporativ madaniyat – bu jamiyatining o‘ziga xos jihatlari, qadriyatlari, an’analarini, etik normalarini va harakatlarini o‘z ichiga olgan tartibdir. Oliy ta’lim muassasalarida korporativ madaniyatni shaxsiy rivojlanish va kasbiy ijtimoiylashuvni rag‘batlantirish uchun muhim mexanizm sifatida qarashini taklif etish zarur. Korporativ madaniyat talabalarga ham kasbiy va ham individual darajadagi ijtimoiy moslashuvni rag‘batlantiradi, bu esa, umumiy muvaffaqiyatga, ya’ni, o‘rganish jarayonidagi samaradorlikka olib keladi.

Muhit o‘zgarishi, iqtisodiy tendensiyalar, texnik va texnologiyalik yangilanishlar davrida talabalar uchun ijtimoiy moslashuv yuqori ahamiyatga ega bo‘ladi. Oliy ta’limda ta’lim vositalari, metod va yo‘nalishlari talab sifatida o‘zgarib, ijtimoiy moslashishni rag‘batlantirishga yo‘naltiriladi.

Ijtimoiy moslashuv — bu insonning jamiyatda yangi talablarga moslashish, o‘zgartirishlar va innovatsiyalariga javob berish qobiliyatidir. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy moslashuvning ahamiyati katta, chunki tez o‘zgarayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va texnologik shart-sharoitlar davrida insonlar ilgarigi tajribalaridan foydalanish orqali yangi muammolarni hal qilishga harakat qilishadi.

Ijtimoiy moslashuvning bir nechta komponentlari bulib, ular kuyidagilar:

- Moslashish qobiliyati: Bu emotsional, psixologik va ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Talabalarning yangi vaziyatlarda qanday harakat qilishlarini, jamoada

ishlash va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish qobiliyatining mustahkamligini belgilaydi.

- Psixologik adaptatsiya: Yangi muhitga yoki muammoga moslashish uchun talabalarning psixologik holati muhim. Ularning stressga tushib qolmaslik qobiliyati, ijobiy fikrlash va tez qaror qabul qilish qobiliyatlari ijtimoiylashuvlarni samarali amalga oshirishda aniqlanadi.
- Ijtimoiy aloqalar: Talabalarning jamoatdagi aloqalari, oilaviy muhiti va do‘stlar bilan moslashish qobiliyati ijtimoiy moslashuvni kuzatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsiyalar – bu yangiliklarga asoslangan harakatlar, ya’ni, yangi o‘ylangan takliflar, usullar, mahsulotlar va xizmatlarni joriy etishdir. Oliy ta’limda innovatsiyalar talabalarning ijtimoiylashuvini rivojlantirishda ham muhim.

Pedagogik innovatsiyalar: Ijodiy ta’lim metodlari, ta’lim vositalari va texnologiyalardan foydalanish talabalarning bilim olish jarayonini samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Texnologik inovatsiyalar: Internet, onlayn kurslar, interaktiv platformalar — bu yechimlar talabalarning ijtimoiylashuvini rivojlantirish uchun muhim vositalar hisoblanadi. Ushbu texnologik yechimlar talabalarning faoliyatini kengaytirish, moslashuvini tezlashtirish va yangi fikrlash tarzini yaratishda o‘z vazifasini bajaradi.

Innovatsiyalar ijtimoiy moslashuvni yaqqol rag‘batlantiradi. Kasbiy faoliyatda yangiliklar va o‘zgarishlarga to‘liq moslashish, talabalarda kelajak kasblarida samarali faoliyat ko‘rsatish qobiliyatini shakllantiradi.

Shuningdek, raqobatbardoshlik va innovatsion asosdagi metodikalar moslashuv jarayonida talabalarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilaydi.

Pedagogikada ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ko‘p tomonlama foydasi bor. Interaktiv ta’lim va innovation metodikalar yordamida, talabalarning ijtimoiy va psixologik moslashuvi samarali bo‘lishi muximdir. Ochiq samara xususiyatlari, doimiy raqobat tahlilini tashkil etish va virtual muhitlari ijtimoiy alokalarni shakllantiradi.

Mazkur holdagi ijtimoiy moslashuv va innovatsiyalar oliy ta’limda talabalarning ijtimoiylashuvini va kasbiy moslashuvini qaror topishida muhim mexanizm hisoblanadi. Talabalarning qobiliyatlari, bilimlari va ko‘nikmalari o‘zaro muvofiqlashtiriladi, bu esa, o‘z navbatida professionallik va ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshib borish mexanizmni tashkil etadi.

Korporativ madaniyat institutda talabalarning samarali faoliyat olib borishlari uchun huquqiy, etik va ijtimoiy asosiy prinsiplarni o‘rganishda zarurdir.

Kasbiy ijtimoiylashuv – bu bilim olish jarayonida tadqiqot, tajriba va ijtimoiy moslashuvning integratsiyasini bildiruvchi kompleksdir. Talabalar hozirgi bozor talablariga mos keladigan ko‘nikmalarni olishlari kerak.

**Kasbiy ijtimoiylashuvning komponentlari quyidagilar**

- **Tadqiqot**: Amalga oshirilgan tadqiqotlar talabalarni qorishda aniqlashtiradi.
- **Amaliyot**: Talabalarning amaliy muddatlari ta’sir ko‘rsatadi.
- **Ijtimoiy faoliyat**: Proektlarda ishtirok etish, jamoaviy ishlash.

Talabalar o‘zgaruvchan bozor iqtisodiyotida yuqori muvaffaqiyatga erishishlari uchun korporativ madaniyatga asoslangan pedagogik uslublarni o‘zlashtirishlari zarur.

Ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash uchun samarali kommunikatsiya talab etiladi. Misollar: **Guruhda ishlash**: Guruh moslashuvini rag‘batlantirish bo‘yicha namunaviy sessiyalar; **Muzokara**: Samarali muloqot va o‘zaro foydali integratsiya.

Oliy ta’limda korporativ madaniyat (KM) talabalarni ijtimoiylashtirish va kasbiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Korporativ madaniyat, oliy ta’lim muassasasining vazni, maqsadi, ishbilarmonlik falsafasi, tashabbusi, va jamoa a’zolarining muomalalarini birlashtiruvchi jarayondir. Uning rivoji talabalar, o‘qituvchilar va boshqaruvchilar orasida samarali aloqa, ishonch va o‘zaro hamkorlikka asoslangan muhitni shakllantiradi.

Korporativ madaniyat oliy ta’limda talabalarning ijtimoiylashuvini va kasbiy moslashuvini rivojlantirishda muhim mexanizm hisoblanadi. Ushbu madaniyatning rivoji talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish, ularning ijtimoiy faoliyatini rag‘batlantirishda samaradorlik va ta’sirchanlikni oshirish imkonini yaratish ko‘zda tutiladi.

Korporativ madaniyat, shubhasiz, oliy ta’limda ta’lim samaradorligi va talabalarning professional rivojini ta’minlashda muhim element bo‘lib hisoblanadi.

Talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirish borasida korporativ madaniyat muhim rol o‘ynaydi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarni zamonaviy bozor muhitiga moslashtirish uchun innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish zarurdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Kuzovatova, N. (2021) "Oliy ta’limda korporativ madaniyat: nazariy va amaliy aspektlar."

2. Nazarov, S. (2020) "Kasbiy ijtimoiylashuv va pedagogik strategiyalar."

3. Islomov, T. (2019) "Korporativ madaniyatning ta’limdagi roli."

4. D.Maxkamova., Pedagogik oliy ta’limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi. Maktabgacha va maktab ta’limi. 2025. 267-271

5. D.Maxkamova., Pedagogik oliy ta’limda talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish. Kasb-hunar ta’limi. 2025. 138-143